


Farg'ona viloyatining TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)

2019 yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 672,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9%ga kamaygan. Shu jumladan, eksport hajmi 288,8 mln. AQSh dollarga (12,1 %ga o'sgan) va import hajmi 383,7 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 88,2 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 94,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

***Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi**
(mln. AQSh dollari)




* tezkor ma'lumot

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida

sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSh dollar)



2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning iyun oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollar)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|--------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Xitoy | 174,3 | 56,4 | 117,9 | 25,9 |
| Rossiya | 132,0 | 61,5 | 70,5 | 19,6 |
| Qozog'iston | 85,5 | 27,2 | 58,3 | 12,7 |
| Qirg'iziston | 77,8 | 58,5 | 19,4 | 11,6 |

(mln. AQSh dollar)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|---------------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Turkiya | 53,8 | 31,8 | 22,0 | 8,0 |
| Tojikiston | 18,6 | 6,6 | 12,0 | 2,8 |
| Germaniya | 16,6 | 0,5 | 16,1 | 2,5 |
| Koreya Respublikasi | 15,5 | 3,1 | 12,4 | 2,3 |
| Polsha | 13,5 | 9,4 | 4,1 | 2,0 |
| Ukraina | 8,1 | 5,3 | 2,7 | 1,2 |
| Yaponiya | 6,7 | 0,2 | 6,4 | 1,0 |
| Misr | 5,9 | 5,6 | 0,3 | 0,9 |
| Bangladesh | 5,4 | 5,4 | 0,0 | 0,8 |
| Vietnam | 3,6 | 3,6 | 0,1 | 0,5 |
| Afg`oniston | 3,1 | 3,1 | 0,0 | 0,5 |
| Italiya | 3,0 | 0,4 | 2,6 | 0,4 |
| Eron | 2,7 | 0,6 | 2,1 | 0,4 |
| Belarusiya | 2,3 | 0,7 | 1,5 | 0,3 |
| Turkmaniston | 2,1 | 0,5 | 1,5 | 0,3 |
| Hindiston | 1,9 | 0,0 | 1,9 | 0,3 |
| Tayvan | 1,9 | 0,0 | 1,9 | 0,3 |
| Niderlandiya | 1,6 | 0,0 | 1,6 | 0,2 |
| Estoniya | 1,4 | 0,3 | 1,1 | 0,2 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,6 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 81,5 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyunoyalarida o'tgan yil

shu davrga nisbatan 188,5 % oshgan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 51,4 %ga yetdi.



EKSPORT.

2019 yil yanvar yanvar-iyun oylarida eksport hajmi 288,8 mln. AQSh dollarga (2018 yilning shu davriga nisbatan 112,1 % ga o'sgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (43,7 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,4 %), qora va rangli metallar (0,01%), shuningdek xizmatlar eksporti (1,6 %) va boshqalar (50,6%) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
(mln.AQSh dollar)**

2018 yil (yanvar-iyun)

2019 yil (yanvar-iyun)




- paxta tolasi
- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- Mashina va asbob -uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga nisbatan, % |
| Eksport | 288,8 | 112,1 | 100,0 | 161,8 | 117,5 | 100,0 | 127,0 | 105,9 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 126,3 | 149,8 | 43,7 | 108,6 | 136,6 | 67,1 | 17,7 | 3,7 m | 13,9 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 1,1 | 59,7 | 0,4 | 1,1 | 64,7 | 0,7 | 0,04 | 17,9 | 0,03 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 10,3 | 95,9 | 3,6 | 5,9 | 78,4 | 3,6 | 4,4 | 1,4 m | 3,5 |
| Qora va rangli metallar | 0,0 | 96,8 | 0,01 | 0,0 | 84,5 | 0 | 0,00 | 2,5 m | 0,0 |
| Mashina va asbob - uskunalar | 0,3 | 69,7 | 0,1 | 0,3 | 63,3 | 0,2 | 0,04 | 2,4m | 0,03 |
| Xizmatlar | 4,6 | 151,5 | 1,6 | 3,1 | 133,9 | 1,9 | 1,5 | 2,1m | 1,2 |
| Boshqalar | 146,2 | 93,6 | 50,6 | 42,8 | 92,7 | 26,5 | 103,3 | 94,0 | 81,4 |

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlарининг таҳлилига асосан, 2019 йилнинг январ-иун ойларидаги экспорт қилинган товар ва хизматлар о'tган йилнинг январ-иун ойларига нисбатан 151,5 % га ошган.


Хизматлар экспорти хажми 4,6 мln. AQSh долларини ўзи жами экспорт хажмининг 1,6 foizini ташкил этаб, о'tган йилнинг шу даврига нисбатан 1,5 martaga ko'payganligi кузатildi.

Хизматлар экспорти таркibining асосиyl улуси transport хизматлари, turizm хизматлари, sog'liqni saqlash bo'yicha хизматлар hamda moliyaviy хизматлар hissasiga to'g'ri keladi.

2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar eksporti
(oylar kesimida, mln. AQSh dollar)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar- iyun)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,1% ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruqlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

| Davlat nomi | Mln. AQSh doll. | | Ulushi, % | | O'rni | |
|------------------------|-----------------|---------|-----------|---------|---------|---------|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Rossiya | 55,9 | 61,5 | 21,7 | 21,3 | 2 | 1 |
| Qirg'iziston | 23,9 | 58,5 | 9,3 | 20,2 | 4 | 2 |
| Xitoy | 56,6 | 56,4 | 22,0 | 19,5 | 1 | 3 |
| Turkiya | 19,7 | 31,8 | 7,7 | 11,0 | 5 | 4 |
| Qozog'iston | 48,8 | 27,2 | 19,0 | 9,4 | 3 | 5 |
| Polsha | 10,5 | 9,4 | 4,1 | 3,3 | 7 | 6 |
| Tojikiston | 2,8 | 6,6 | 1,1 | 2,3 | 9 | 7 |
| Misr | 0,3 | 5,6 | 0,1 | 2,0 | 30 | 8 |
| Bangladesh | 12,0 | 5,4 | 4,7 | 1,9 | 6 | 9 |
| Ukraina | 2,3 | 5,3 | 0,9 | 1,8 | 11 | 10 |
| Vietnam | 2,1 | 3,6 | 0,8 | 1,2 | 12 | 11 |
| Afg'oniston | 2,8 | 3,1 | 1,1 | 1,1 | 10 | 12 |
| Koreya Respublikasi | 3,8 | 3,1 | 1,5 | 1,1 | 8 | 13 |
| Marokko | 0,4 | 1,2 | 0,2 | 0,4 | 25 | 14 |
| Belgiya | 1,4 | 1,1 | 0,5 | 0,4 | 14 | 15 |
| Chexiya | 1,0 | 0,9 | 0,4 | 0,3 | 17 | 16 |

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi
(yanvar- iyun)**

(mln. AQSh doll.)

| | Rossiya Respublikasi | | Qozoqiston Respublikasi | |
|---|----------------------|-------------|-------------------------|-------------|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Jami eksport | 55,9 | 61,5 | 48,8 | 27,2 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 16,7 | 25,4 | 43,6 | 24,8 |
| Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar | 0,0 | 0,0 | 0,2 | 0,1 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 0,0 | 1,5 | 2,5 | 0,7 |
| Qora va rangli metallar | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Mashina va uskunalar | 0,4 | 0,1 | 0,0 | 0,1 |
| Xizmatlar | 2,3 | 3,0 | 0,0 | 0,0 |
| Boshqalar | 36,6 | 31,4 | 2,5 | 1,6 |

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-iyun oylarida jami 114,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 110,0 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 1,3 martaga ko`paygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 52,3 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 39,1 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,8 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 57,9 ming tonna meva va rezavorlar 66,0 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,5 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 105,1 mln .AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 martaga ko'paygan.).


Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

| Davlat nomi | 2018 yil yanvar-iyun | | | 2019 yil yanvar- iyun | | |
|--------------|----------------------|--------------------|--------------|-----------------------|--------------------|--------------|
| | Ming. tonna | Ming. AQSh,doll | Ulushi, % | Ming. tonna | Ming. AQSh,doll | Ulushi, % |
| Qozog'iston | 24,5 | 43,2 | 51,9 | 37,7 | 24,5 | 22,3 |
| Rossiya | 17,3 | 16,4 | 19,7 | 38,6 | 24,7 | 22,5 |
| Qирг'изистон | 14,1 | 18,0 | 21,6 | 24,3 | 52,1 | 47,4 |
| Afg'oniston | 3,1 | 2,6 | 3,1 | 0,7 | 0,5 | 0,5 |
| Ukraina | 0,8 | 0,7 | 0,8 | 8,0 | 3,0 | 2,7 |
| Turkiya | 0,5 | 0,4 | 0,5 | 1,0 | 0,8 | 0,7 |

IMPORT

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 383,7 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 88,2 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (35,4%), energiya manbalari va neft maxsulotlari (10,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,4%), qora va rangli metall (12,2 %), import xizmati (0,8%) hamda boshqalar (20,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)




Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|-------------------------|------------------|--------------------------|----------------------------|------------------|--------------------------|----------------------------|------------------|--------------------------|----------------------------|
| | mlin. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmiga nisbatan, % | mlin. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmiga nisbatan, % | mlin. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmiga nisbatan, % |
| Import | 383,7 | 88,2 | 100,0 | 183,3 | 66,8 | 100,0 | 200,4 | 124,6 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 34,8 | 179,6 | 9,1 | 27,1 | 191,5 | 14,8 | 7,7 | 147,2 | 3,8 |

| | | | | | | | | | |
|---|-------|-------|------|------|-------|------|-------|-------|------|
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 43,8 | 137,5 | 11,4 | 14,7 | 162,6 | 8,0 | 29,1 | 127,6 | 14,5 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 40,1 | 21,7 | 10,5 | 39,9 | 21,6 | 21,8 | 0,2 | 135,6 | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 47,0 | 115,2 | 12,2 | 25,7 | 219,7 | 14,0 | 21,3 | 73,2 | 10,6 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 135,8 | 138,3 | 35,4 | 18,0 | 192,6 | 9,8 | 117,8 | 132,6 | 58,8 |
| Xizmatlar | 3,0 | 99,7 | 0,8 | 0,2 | 115,5 | 0,1 | 2,8 | 98,6 | 1,4 |
| Boshqalar | 79,2 | 139,2 | 20,6 | 57,7 | 128,1 | 31,4 | 21,5 | 180,7 | 10,8 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 yilning mos davriga nisbatan 88,2% ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**


| Davlat nomi | Mln. AQSh dollari. | | Ulushi, % | | O'rni | |
|--------------|--------------------|---------|-----------|---------|---------|---------|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy | 105,0 | 117,9 | 24,1 | 30,7 | 2 | 1 |
| Rossiya | 147,3 | 70,5 | 33,8 | 18,4 | 1 | 2 |
| Qozog'iston | 83,8 | 58,3 | 19,3 | 15,2 | 3 | 3 |
| Turkiya | 8,7 | 22,0 | 2,0 | 5,7 | 7 | 4 |
| Qirg'iziston | 19,3 | 19,4 | 4,4 | 5,1 | 4 | 5 |
| Germaniya | 11,7 | 16,1 | 2,7 | 4,2 | 5 | 6 |
| Koreya | 10,0 | 12,4 | 2,3 | 3,2 | 6 | 7 |
| Latviya | 6,0 | 12,1 | 1,4 | 3,1 | 10 | 8 |
| Tojikiston | 3,5 | 12,0 | 0,8 | 3,1 | 12 | 9 |
| Yaponiya | 0,1 | 6,4 | 0,0 | 1,7 | 31 | 10 |
| Litva | 3,3 | 5,5 | 0,8 | 1,4 | 13 | 11 |
| Polsha | 0,7 | 4,1 | 0,2 | 1,1 | 22 | 12 |
| Ukraina | 1,5 | 2,7 | 0,3 | 0,7 | 16 | 13 |
| Italiya | 3,2 | 2,6 | 0,7 | 0,7 | 14 | 14 |
| Eron | 1,4 | 2,1 | 0,3 | 0,5 | 18 | 15 |
| Hindiston | 7,3 | 1,9 | 1,7 | 0,5 | 9 | 16 |
| Tayvan | 0,4 | 1,9 | 0,1 | 0,5 | 35 | 17 |
| Niderlandiya | 1,5 | 1,6 | 0,3 | 0,4 | 17 | 18 |
| Turkmaniston | 8,5 | 1,5 | 2,0 | 0,4 | 8 | 19 |
| Belorusiya | 0,8 | 1,5 | 0,2 | 0,4 | 21 | 20 |

Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2019 yil yanvar-iyun

Xizmatlar importi hajmi 3,0 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,8 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.


2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oyda, mln. AQSh dollar)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-iyun davriga nisbatan 51,5 mln.AQSh dollarga kam import qilindi va 383,7 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-iyun)**

2019 yil



2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizga 67 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 9 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston, Germaniya va Korea Respublikasi, Latviya, Tojikiston Respublikasi hamkor davlatlaridan jami import hajmi 340,6 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 88,7 % ni tashkil qiladi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-87-18**